

## Qozog'iston Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifiga doir

---



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev 2017-yil 16-17-sentabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rta sidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish, shuningdek, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashish [rejalashtirilgan](#).

Muzokaralar yakunlari bo'yicha Toshkent shahrida ikki mamlakat Prezidentlarining Qo'shma bayonoti, O'zbekiston va Qozog'iston o'rta sidagi ko'p qirrali do'stona munosabatlarni izchil rivojlantirishga qaratilgan ko'plab hujatlar imzolanadi.